

O‘zbekiston Respublikasi
Milliy gvardiyasi
qo‘mondoni o‘rribosari -
Qo‘riqlash bosh
boshqarmasi boshlig‘ining
2019-yil 07-avgust
kunidagi 42-son buyrug‘iga
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash xizmati tomonidan
jismoni va yuridik shaxslarga qo‘riqlash xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha**

SHARTNOMA 01/P-son

Samarqand shahri.

2022-yil 07-Yanvar

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Samarqand viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshlig‘i podpolkovnik R.M.Nomozov (keyingi o‘rinlarda «Ijrochi» deb yuritiladi) bir tomonidan Urgut tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi nomidan nizom asosida faoliyat yurituvchi mudiri J.Z.Zoitov (keyingi o‘rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) ikkinchi tomonidan, birgalikda «Tomonlar» deb yuritiladi, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1-bob. Shartnomalar predmeti

1. Ijrochi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash xizmati, harbiylashtirilgan va soqchilik qo‘riqlashi ko‘rinishida, texnik qo‘riqlash punktidan (keyingi o‘rinlarda TQM deb yuritiladi) foydalangan holda Buyurtmachining mulkini qo‘riqlash xizmatini ko‘rsatish majburiyatini, Buyurtmachi esa mazkur Shartnomalariga asosan o‘z vaqtida ko‘rsatilgan xizmat uchun to‘lovlarini amalga oshirish majburiyatini oladi.

2-bob. Umumiy shartlar

2. Buyurtmachi Urgut shahar Navoiy shoh ko‘chasida joylashgan Urgut tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi mudiri xizmat xonasidagi “Tashvish Tugmasi” soat 09:00dan 13:00 gacha (shanba va yakshanba dam olish kuni) bilan TQM orqali qo‘riqlash uchun (keyingi o‘rinlarda obyekt deb yuritiladi) ijrochiga topshiradi, Ijrochi qabul qiladi.

3. Obyektning qo‘riqlash chegaralari (imoratlari, qurilmalari), postlarining (yo‘nalishlari) joylashuvi chizma-rejada ko‘rsatiladi va mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Obyektdagi kirish-chiqish, ichki obyekt rejimi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadigan kirish-chiqish va ichki obyekt rejimini tashkil etish yo‘riqnomasiga muvofiq amalga oshiriladi hamda mazkur Shartnomaga ilova qilinib uning ajralmas qismi hisoblanadi.

5. Obyektni texnik qo‘riqlash vositalari bilan jihozlash va ta’mirlash Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi, texnik qo‘riqlash vositalari Ijrochining aybi bilan ishdan chiqqan hollar bundan mustasno. Obyektni yong‘indan qo‘riqlash va xavf-xatar signalizatsiyasi bilan jihozlash chizmasi mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

6. Obyektni qo‘riqlashda Buyurtmachi bilan kelishilgan holda soqchilardan foydalanish mumkin.

7. Mazkur Shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, obyektda 5-ish kuni ichida Milliy gvardiya qo‘riqlash turi yo‘lga qo‘yiladi. Obyektda soqchilik qo‘riqlash turi va harbiylashtirilgan qo‘riqlash obyektga 5-ish kuni ichida yo‘lga qo‘yiladi.

8. Buyurtmachi ko‘zdan kechirish dalolatnomasida ko‘rsatilgan talablarni bajarmaganda Ijrochi qo‘yilmaydi, qo‘yilgan Ijrochi esa chaqirib olinadi.

3-bob. To‘lovlarini amalga oshirish

9. Mazkur shartnoma asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi: post-soat hisobida qo‘riqlash xizmati oyiga **342299** so‘m (Uch yuz qirq ikki ming ikki yuz to‘qson to‘qqiz) so‘m, Jami bo‘lib 1 029 000 (Bir million yigirma to‘qqiz ming) so‘m;

10. Ijrochi xizmatlari uchun to‘lovlariga o‘zgartirishlar kiritish qonun hujjalariiga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko‘rib chiqiladi.

11. Buyurtmachi mazkur Shartnom imzolangan kunda boshlab, 7-kun ichida mazkur Shartnoma bahosining 15 foizi miqdorida avans to‘lovini amalga oshiradi. Ijrochi tomonidan Buyurtmachiga bajarilgan ishlar to‘g‘risida dalolatnoma taqdim qilingandan so‘ng Buyurtmachi besh kun ichida avans to‘lovini chiqarib tashlagan holda oylik to‘lovni amalga oshiradi.

Buyurtmachi byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag‘lari oluvchi bo‘lsa, oylik to‘loving 100 foizi miqdorida avans to‘lovini keyingi oy boshlanishidan 10-kun oldin amalga oshiradi.

12. Xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblangan Buyurtmachi mazkur Shartnomaning 11-bandida ko‘rsatilgan oylik to‘lovni (avans to‘lovini) o‘z vaqtida to‘lamasa, Ijrochi Buyurtmachiga akseptsiz to‘lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir.

Mazkur Shartnoma bekor qilingan hollarda Ijrochi Buyurtmachi bilan to‘langan to‘lovlari bo‘yicha qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur.

4-bob. Tomonlarning huquq va majburiyatları

13. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

-Ijrochidan belgilangan qo‘riqlash tartibiga rioya etishini talab qilish;

-Xizmat ko'rsatish jarayonida Ijrochining xodimlari tomonidan intizomni buzish holatlarini to'xtatish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha kerakli choralar ko'rilishini Ijrochidan talab qilish;

-Ijrochining xizmatni tashkil qilishi va amalga oshirishini, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini nazorat qilish;

-Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma shartlari buzilishining har bir holati bo'yicha Ijrochining vakili ishtirokida ikki nusxa dadalolatnama tuzish;

-Ijrochining aybi bilan yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlangan taqdirda Ijrochidan ularni bartaraf etishni talab qilish;

-Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma talablari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni undirish.

14. Buyurtmachining majburiyatları: mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 20 ____ yil « ____ » ____ dagi ko'zdan kechirish dalolatnomasiga asosan qo'riqlashga topshiriladigan obyektni, alohida xonalarni texnik mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni bajarish, o'z hisobidan texnik qo'riqlash vositalari (obyektning turiga qarab post qurilmalari va uni isitish uskunalari, postlararo aloqa, ichki va shahar telefonlari, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi, obyekt perimetri bo'ylab kerakli yoritish vositalari, qulflar, turniket, kuzatish maydonchasi, shaxsiy tekshirish xonalari, ishchi va xizmatchilarining shaxsiy buyumlarini saqlash xonalari, yong'in o'chiruvchi vositalar va boshqalar) bilan jihozlash va zarus hollarda ularni ta'mirlash;

-Har qanday moddiy qimmatliklarni obyekt hududining devor to'sig'idan 15-metr uzoqlikda (obyekt joylashuvini hisobga olgan holda) joylashtirish;

-Ijrochi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta obyektning texnik mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanganini, shu jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi holatini tekshirish ko'rigini o'tkazish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari, Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda Tomonlarning vakillari ishtirokida dalolatnama tuzish;

-Belgilangan qo'riqlash rejimi talablarini bajarish va texnik qo'riqlash vositalarining tegishli holatini ta'minlash;

-Binoda rejalashtirilayotgan kapital ta'mirlash ishlari, obyektlarni qayta jihozlash, ish rejimini va ishlar profilini o'zgartirish, moddiy qimmatliklarni saqlash joyini o'zgartirish yoki yangilarini ochish, obyekt yoki uning bir qismini boshqa shaxslarga ijara berish yoki mulk huquqini o'tkazish, qo'riqlash turini, postlar dislokatsiyasini o'zgartirish yoki qo'shimcha qo'riqlash signalizatsiyasi vositalarini o'rnatish bo'yicha tadbirlarning o'tkazilishi haqida Ijrochini bunday ishlarning boshlanishidan kamida 5 -kun oldin ogohlantirish;

- Obyektda ish kuni yakunida qo‘riqlash signalizatsiyasini yoqish, uning nosozligi holatida bu haqda Ijrochini ogohlantirish va nosozlik bartaraf etilmagunga qadar obyektni tashlab ketmaslik va belgilangan tartibda qo‘riqlashga topshirish. Obyektni qo‘riqlashga topshirganlik haqida TQPni xabardor qilib, 5-daqiqadan so‘ng obyektning qo‘riqlashga qabul qilinganligi haqida ishonch hosil qilish;

-Obyektni, yong‘indan qo‘riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlangan har bir alohida xonani kundalik qo‘riqlashga topshirish, eshiklar qulfi, derazalar, darchalar, lyuklar, ventilyasiya teshiklari yopilganligini hamda avtonom qo‘riqlash signalizatsiyasini va hududning yoritilish holatini tekshirish, qo‘riqlanadigan binolarda elektr jihozlarining, boshqa yong‘in manbalarining yoqilgan holda qolib ketishining oldini olish va begona shaxslarning obyektda qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;

-Qo‘riqlanayotgan hududda binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o‘ralgan yoki qadoqlangan holatda qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro‘yxatdan o‘tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qo‘riqlashga topshirish;

-Maxsus jurnalda o‘z vakili tomonidan imzo qo‘yish yo‘li bilan obyektlarni, alohida xonalarni qo‘riqlashga topshirish, qo‘riqlash tugagandan so‘ng qo‘riqlashdan chiqarish;

-Qo‘riqlanadigan xonalarning butunligi buzilganligi haqida yoki obyektga begona shaxslarning kirishi natijasida zarar etkazilganligi alomatlari mavjud bo‘lganda zudlik bilan Ijrochini xabardor qilish va obyektga Ijrochi vakili etib kelguniga qadar ko‘rsatilgan joylarning daxlsizligini ta’minlash;

-Begona shaxslarga qo‘riqlash va signalizatsiya tamoyillari va tizimini, shuningdek berilgan pult raqamlarini oshkor qilmaslik;

-Ijrochi vakillarini obyektdagi ichki tartib va texnika xavfsizligi qoidalari bilan ularning o‘z vazifalarini bajarishiga oid qismi bilan tanishtirish;

15. Ijrochining huquqlari:

-Buyurtmachidan obyektda o‘rnatilgan kirish-chiqish va ichki tartibga rioya qilinishini talab qilish;

-Mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo‘lgan ma’lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so‘rash va olish;

-Ko‘zdan kechirish dalolatnomasida ko‘rsatilgan qo‘riqlash-texnika vositalarini joriy qilish bo‘yicha Buyurtmachiga tavsiyalar berish.

16. Ijrochining majburiyatları:

obyektda postlar dislokatsiyasiga (patrul yo‘nalishiga) muvofiq qo‘riqlash naryadini joriy etish;

-Mazkur Sharhnomada va uning ilovalariga muvofiq obyektni hamda qo‘riqlashga topshirilgan moddiy qimmatliklarni qo‘riqlashni tashkil etish va ta’minlash;

-Qo‘riqlanayotgan hududdagi, lekin binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o‘ralgan yoki qadoqlangan holatini tekshirib, qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro‘yxatdan o‘tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qabul qilib olish;

-Obyektida kirish-chiqish va obyekt ichki tartibiga rioya etish, obyekt hududiga belgilangan tartibda moddiy qimmatliklar olib kirilishi va chiqilishini nazorat qilish;

-Propusk rejimi mavjud bo‘lgan obyektlarda kun davomida nazoratdan o‘tkazish punktidan bir martalik kirish ruxsatnomasi bilan obyektga kiritilgan tashrif buyuruvchilarining chiqib ketishini ta’minlash;

-Obyektni qo‘riqlash vaqtida joydagi yong‘in xavfsizligi qoidalarining bajarilishini ta’minlash;

-Obyektida yong‘in chiqishi yoki yong‘indan qo‘riqlash signalizatsiyasining ishlab ketishi holatida zudlik bilan yong‘in bo‘limiga yoki Buyurtmachiga xabar berish;

-Obyektga begona shaxslarning kirib ketganligi aniqlanganda zudlik bilan Buyurtmachining vakilini chaqirish va obyektning daxlsizligini ta’minlash;

-Yong‘indan qo‘riqlash signalizatsiyasi ishlab ketgan holatlarda signalizatsiyaning ishlab ketish sabablarini aniqlash va obyektni qayta topshirish uchun Buyurtmachi vakilini chaqirtirish, tekshirish natijalari va obyektni qayta topshirish bo‘yicha ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

-Ijrochining xodimlari tomonidan xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish, qo‘riqlash turlariga mos bo‘lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini ta’minlash;

-Obyektni qo‘riqlashga qabul qilganda va topshirganda obyektdagi texnik mustahkamlik bo‘yicha va qo‘riqlashning texnik vositalari bilan bog‘liq aniqlangan barcha kamchiliklar haqida Buyurtmachini xabardor qilish;

-Buyurtmachi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta obyektning texnikaviy jihatdan mustahkamligini, qo‘riqlashning texnik vositalari bilan ta’minlanishini, jumladan yong‘indan qo‘riqlash signalizatsiyasini tekshirish ko‘rigini o‘tkazish, Buyurtmachi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari hamda Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko‘rsatgan holda tomonlarning vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

-Ijrochi tomonidan mazkur Sharhnomalarining har bir buzilishi bo‘yicha Ijrochi va Buyurtmachining vakillari ishtirokida ikki nusxada

dalolatnama tuzish va bir nusxasini Ijrochining rahbariga tegishli choralar ko‘rish uchun berish;

-Qo‘riqlanayotgan xonalar buzilganligi yoki mulkka yetkazilgan zarar to‘g‘risida Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmati navbatchi qismiga va Buyurtmachiga zudlik bilan xabar berish, Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmati vakili etib kelgunga qadar hodisa yuz bergen joyning daxlsizligini ta’minlash.

5-bob. Tomonlarning javobgarligi

17. Mazkur Shartnomaning 11-bandida ko‘rsatilgan summaning Buyurtmachi tomonidan o‘z vaqtida to‘lamaganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda penya to‘laydi.

18. Ijrochining xodimi postda va patrul yo‘nalishlarida bo‘lmaganida Ijrochi Buyurtmachiga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorda penya to‘laydi, biroq bunda ko‘rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.

19. Penyani to‘lash Buyurtmachi va Ijrochini o‘z majburiyatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

20. Ijrochi mazkur Shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachiga yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo‘ladi. Ijrochining aybi bilan zarar yetkazilganligi aniqlangan hollarda zarar to‘liq miqdorda qoplanadi.

21. Ijrochining aybi bilan yetkazilgan zararning miqdorini aniqlash uchun tomonlar vakillaridan iborat komissiya tuzilishi mumkin. Bunda, zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib, komissiya a’zolari tomonidan tasdiqlanadi. Nizo mavjud bo‘lgan taqdirda zarar miqdori sudning qarori bilan aniqlanadi.

22. Quyidagi hollarda Ijrochi zararni qoplamaydi:
Ijrochi shartnomaga ko‘rsatilgan majburiyatlarni to‘liq bajargan bo‘lishiga qaramasdan zarar uchinchi shaxslarning jinoiy harakatlari natijasida yetkazilgan bo‘lsa va bu sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlansa;

-Qabul qilish-topshirish jurnalida qayd etilmagan mulkka zarar yetkazilganda;

Buyurtmachining xodimlari tomonidan yoki ularning aybi bilan zarar yetkazilganda.

23. Mazkur shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganlik uchun belgilangan neustoyka (jarima, penya) to‘lash hamda zararni qoplash tomonlarni shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6-bob. Nizolarni hal qilish tartibi

24. Mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflar o‘rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi nizolar qonun hujjatlari belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

7-bob. Fors-major

25. Tomonlar ushbu Shartnama bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarmaslik Shartnama tuzilgandan keyin paydo bo‘lgan, yengib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

26. Yengib bo‘lmaydigan kuch holatiga havola qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday holatlari boshlanganligi va tamom bo‘lganligi to‘g‘risida ikki kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida xabar bermagan Tomon mazkur shartnomaga bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko‘rsatishga haqli emas.

Fors-major holatlariga suv toshqinlari, yer qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar, yong‘inlar, portlashlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mazkur shartnomaga ijrosiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan qarorlari kiradi.

27. Mazkur shartnomaga bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo‘lmas kuch holatlari amal qilgan davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agarda fors-major uch oy davom etsa Tomonlar mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

8-bob. Yakuniy qoidalar

28. Mazkur shartnomaga imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi. Mazkur shartnomaga byudjet tashkilotlari yoki byudjet mablag‘lari oluvchilar bilan tuzilganda g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng kuchga kiradi.

29. Mazkur Shartnomaga har qanday o‘zgartirish va qo‘srimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda Buyurtmachi va Ijrochining vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiydir.

Tomonlar mazkur shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki o‘ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

30. Shartnomaning amal qilish muddati quyidagicha belgilanadi:
xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bo‘yicha — Tomonlar tarafidan imzolangan kundan boshlab Tomonlar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarguniga qadar;

-Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilari bo‘yicha — belgilangan tartibda g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab kuni oxirigacha.

-Buyurtmachi xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘lgan taqdirda Buyurtmachi mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Ijrochiga shartnomaga muddati tugashidan 30-kun oldin ma’lum qilmassa, mazkur Shartnomaning amal qilish muddati xuddi shu muddatga va xuddi shu shartlarda uzaytirilgan hisoblanadi.

31. Agar texnik qo‘riqlash vositalari Buyurtmachining aybi bilan ishdan chiqqan, kapital yoki joriy ta’mirlashni talab qilsa, biroq Buyurtmachi buni rad etsa, Ijrochi Buyurtmachiga yetti kun oldin yozma ma’lum qilgan holda alohida obyektlarni qo‘riqlashni rad etishi mumkin.

32. Buyurtmachi ketma-ket uch marta mazkur shartnomaning 11-bandida ko‘rsatilgan to‘loymi belgilangan muddatda to‘lamasa, Ijrochi mazkur shartnomani Buyurtmachini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

33. Ijrochi ketma-ket uch marta post va patrul yo‘nalishlarida qo‘riqlash tartibini buzsa, Buyurtmachi mazkur shartnomani Ijrochini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

34. Tomonlar mazkur Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risida 30-kun oldin yozma ravishda ma’lum qiladi.

35. Obyektning xususiyatidan kelib chiqib Tomonlar mazkur shartnomaga qonun hujjatlariga muvofiq huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo‘srimcha bandlar kiritishlari mumkin.

9-bob. Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari

Ijrochi

O‘zbekiston Respublikasi Milliy
gvardiyasi Samarqand viloyati
Qo‘riqlash boshqarmasi

Yuridikmanzili: Samarkand
shahri, T. Malik ko‘chasi 12-uy

Bank rekvizitlari:

H/R: 21596000800470456001

MFO:00022

STIR: 201214264

OKED:84240

“Markaziybank” Samarqand
viloyat bo‘limi

Buyurtmachi

Urgut tuman Maktabgacha
ta’lim bo‘limi

Yuridikmanzili: Urgut shahar.
Navoiy shoh ko‘chasi

Bank rekvizitlari:

H/R

100022860182367098602251001

23402000300100001010

MFO:00014

STIR:207266806

**Urgut tuman Maktabgacha
ta’lim bo‘limi mudiri**



‘i
P.M.NOMOZOV
(imzo, muhr)



J.Z.ZOITOV

